

DINSHUNOSLIKDA ILK XRISTIAN JAMOALARI TARIXI

O'RGANILISHINING DOLZARBLIGI

Agzamova Nozimaxon Behzodovna

07.00.04 - Dinshunoslik ixtisosligi

1- kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya: Tezisda dinshunoslik sohasining bir bo'lagi hisoblangan xristianlik dinining tarixi, jumladan ilk xristian jamoalari shakllanish bosqichlari haqida so'z yuritilgan, hamda bu mavzuning dolzarbliги aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: Ilk xristian jamoalari, monoteistik din, Birinchi butun olam sobori, Rim imperiyasi, dastlabki xristianlik bosqichlari, imperator Konstantin davri.

O'zbekiston xalqining boy ma'naviy merosi, qadimiy madaniyati va turli millat vakillarining diniy e'tiqodlari xalqaro hamjamiyatning qiziqish obyektiga aylangan. O'zbekiston Respublikasi dunyoviy davlat hisoblanib, davlat dinlararo tinchlik va totuvlikni qo'llab-quvvatlaydi. Yurtimizda konfessiyalar o'rtasidagi bag'rikenglikni mustahkamlash, jamiyatda diniy tolerantlikni ta'minlash ustuvor vazifa etib belgilangan. Bu vazifalarni to'la-to'kis bajarishda dinshunoslik sohasining hissasi cheksiz desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Dinshunoslikdagi har bir o'rganilayotgan masalalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi va 2018-yil 17-apreldagi PF-5416-son "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, 2019-yil 4-sentabrdagi PQ-4436-son "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2021-yil 5-iyuldag'i O'RQ-699-son "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonuni hamda 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida belgilab berilgan vazifalarni bajarishga qaratilgan tizimli ishlarning muayyan yo'nalishlariga

bevosita bog'liq.

Bu borada aytishimiz mumkinki, xristian jamoalari tarixini o'rganish qator fanlar doirasida, jumladan, dinshunoslikda, tarixshunoslikda dolzARB masala hisoblanadi.

Ilk xristian jamoalari tarixini tadqiq etishning amaliy ahamiyati aholi orasida noislomiy diniy yo'nalishlar faoliyatiga doir ma'lumotlarning chegaralanganligi sababli, ularning tuzilishi, faoliyat doirasi hamda urf-odatlari bir xil emasligining yoritib berilishida namoyon bo'ladi.

Xristianlik eng keng tarqalgan va ko'p sonli monoteistik din bo'lib, butun dunyo bo'ylab ikki milliarddan ortiq izdoshlariga ega.

Manbalarda ko'rsatilishicha, davriy jihatdan xristianlikning shakllanishi va faoliyat ko'rsatishi milodiy I asrdan V asrgacha davom etgan. Va ko'rsatilgan bu davr uch bosqichga bo'linib, unda yangi diniy e'tiqodning quyidagi davriy aqidalari qaror topgan:

- 1.Aktual esxatologiya bosqichlari (I asrning ikkinchi qismi);
- 2.Xristianlik diniy e'tiqodining moslashuv bosqichi (II asr);
- 3.Saltanatda hukmdorlik uchun kurash bosqichi (III-V asr).

Uch bosqichdan iborat xristianlikning shakllanishidan to mukammal diniy e'tiqod darajasiga yetgunicha o'tgan davr ichida muttasil jiddiy evolyusiyalar, talqinlar to'qnashuvi, o'zaro qarama-qarshiliklar, ijtimoiy va milliy kurashlar kabi jarayonlar yuz bergan.

Ilk xristianlik tarixi miloddan avvalgi I asrning 30-yillari atrofida ko'plab yahudiylilik yo'nalishlari orasida paydo bo'lgan, taxminan Falastinda va 325-yilda Nikeyadagi Birinchi butun olam soborigacha bo'lgan davrdir.

300 yil davomida xristianlik Rim imperiyasida hukmron dinga aylandi va o'rta asrlar Yevropa sivilizatsiyasining shakllanishida eng muhim omilga aylandi.

Shu bilan birga, dastlabki xristianlik bosqichlari quyidagilardir: Iso Masih va favoriyarning faoliyati davri, I-II asrlarda xristianlik, II-III asrlarda, Rim davlati va jamiyati bilan aloqalari, ta'limotning rivojlanishi va oxir-oqibat imperator Konstantin davrida xristianlikning tan olinishi davridir.

Dinshunoslikda ushbu sho'baning dolzarblik jihatni yuqori deb hisoblanib, o'ziga quyidagi vazifalarni yuklaydi:

- mamlakatimizda diniy-mafkuraviy holatning shakllanishida islomdan boshqa dinlarning o'rni, xossatan, xristianlik bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlarda ushbu tadqiqotda berilgan ma'lumotlarni istifoda etish;

- dinlararo bag'rikenglik va millatlararo totuvlik kabi tamoyillarning ma'no-mohiyatini bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim-tarbiya ishlarining markaziga qo'yish, ularni yangi bosqichga ko'tarish, yosh avlodni har tomonlama mustaqil fikrlaydigan yetuk dunyoqarash egalari qilib tarbiyalashda ma'lumotlardan foydalanish.

Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan ta'kidlanganidek, "Jamiyatimizda diniy konfessiyalar o'rtasida hamjihatlik va fuqarolar totuvligini mustahkamlashni biz bundan buyon ham eng dolzarb va ezgu vazifamiz deb bilamiz". Bundan kelib chiqadiki, dinlararo bag'rikenglikni yanada mustahkamlash hamda zamonaviy global jarayonlarni tushunish uchun diniy konfessiyalarning tarixi va zamonaviy faoliyatini, jumladan, xristian tashkilotlarining faoliyatini bilish zarur.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2017 йил, 22 декабрь // www.uza.uz
2. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida. // Toshkent shahar, 2021 yil 5-iyul. O'RQ-699-son. <https://lex.uz/docs/-5491534>
3. 2017 – 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича харакатлар стратегияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли Фармонига 1-илова // <http://www.lex.uz>.
4. Д. Муратов, М. Алимова, Ж. Каримов. ДИНШУНОСЛИК, дарслик. – Тошкент, «Наврӯз» нашриёти, 2019. 264 бет.
5. Низомиддинов, Н. Жанубий, Жануби-Шарқий, Шарқий ва Марказий Осиёда христианлик тарихи [Матн] / Нажмиддин Низомиддинов. – www.pedagoglar.org

Тошкент: “Ўзбекистон халқаро ислом академияси” нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2023. В- 15.

6. Десницкий А. С. Зарождение христианства: что мы знаем и откуда? // Ориенталистика. — 2021. — Т. 4, № 5. — С. 1301—1321
7. История раннего христианства. Хрестоматия / Сост. А.Д. Пантелеев. — Санкт-Петербург : СПГУ, 2014. — 108 с.

Internet resurslar

8. <https://lex.uz/docs/-3686277>
9. <https://lex.uz/ru/docs/-4500897>
10. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>